

Ov qilish taqiqlangan joylar (30.09.2021 y. holatiga)

Ов қилиш тақиқланган жойлар (30.09.2021 й. ҳолатига)

Места, где охота запрещена (по состоянию на 30.09.2021 г.)

Places where hunting is prohibited (as of 30.09.2021)

Ov qilish joylari – ov qilish uchun foydalaniladigan yoki foydalanilishi mumkin boʻlgan, yovvoyi hayvonlarning yashash muhiti, boʻlish va urchish joylari, ularning koʻchib oʻtish yoʻllari boʻlgan yerlar, suv obʼektlari va oʻrmonlardan iborat boʻladi.

Охотничьи угодья – это земли, водоемы и леса, места обитания, разведения диких животных, пути их миграции которые используются или могут быть использованы для охоты.

t/r	Ov qilish uchun taqiqlangan joylar Места запрещенные для охоты / Prohibited areas for hunting	Ov qilish joylari hududidagi taqiq Места на охотничьих угодьях запрещенные для охоты Prohibiti on areas on hunting grounds
1	aholi punktlarining yerlari.	qishloq xoʻjaligi, meliorativ, oʻrmon xoʻjaligi ishlarini va boshqa ishlarni yovvoyi hayvonlarning nobud boʻlishiga olib keladigan usullarda amalga oshirish;
2	sogʻlomlashtirish, rekreatsiya va tarixiy-madaniy maqsadga moʻljallangan yerlar;	oʻzboshimchalik bilan yovvoyi qushlarning tuxumlarini yigʻish, uyalarini vayron qilish, yovvoyi hayvonlarning uycharini, inlarini va boshqa uyalarini buzish, bundan yovvoyi hayvonlar sonini tartibga solish bilan bogʻliq hollar mustasno;
3	muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, agar ularning rejimida ov qilish nazarda tutilmagan boʻlsa;	qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarda hamda boshqa toifadagi yerlarda qurigan dov-daraxtlarni va ularning qoldiqlarini ildizi bilan yoqish;
4	shaharlar atrofidagi yashil zonalar;	yovvoyi hayvonlarning yashash muhiti, boʻlish va urchish joylarida, shuningdek ularning koʻchib oʻtish yoʻllari boʻlgan joylarda dov-daraxtlarni yoʻq qilib yuborish, qiyoq, qamish va yovvoyi holda oʻsuvchi boshqa oʻsimliklarning chakalakzorlarini yoqish.
5	korxonalarining sanitariya-himoya zonalari;	
6	suv olish inshootlarining himoya zonalari;	
7	aerodromlar;temir yoʻllarning himoya zonalari;	
8	chegara oldi mintaqasi;	
9	hosil yigʻishtirib olinguniga qadar qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar;	
10	toʻgʻonlar, suv ayirgichlar, koʻpriklar yonidagi, baliqchilik pitomniklari, hovuz xoʻjaliklari va boshqa madaniy baliqchilik xoʻjaliklari chegaralaridagi uchastkalar, agar ushbu obʼektlarni muhofaza qilish rejimida ov qilishga doir taqiq nazarda	

	tutilgan bo'lsa.	
--	------------------	--

Asos:O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 8 iyuldagi «Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida»gi 627-son Qonuni